

Tarjimashunoslik ilmda Alisher Navoiy ijodiga doir tadqiqotlar

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti
Roman-german filologiyasi fakulteti
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyberdiyeva Nigora Sherali qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarjimashunoslik ilmda Alisher Navoiy ijodiga doir tadqiqotlar, ilmiy qarashlar va mulohazalar xususida fikr yuritiladi. Insoniyat qadim zamonlardan buyon tarjimaga muhtoj bo'lgan. Navoiy asarlari tarjimasida esa Sharq va G'arb madaniyati o'rtasida ko'priklar vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: Tarjima, adekvat tarjima, she'riy tarjima, poetik figura, tasviriy vosita, trop, ma'naviy va lafziy san'at.

Abstract. This article discusses the research, scientific views and comments on the work of Alisher Navoi in the field of translation studies. Humanity has needed translation since ancient times. The translation of Navoi's works serves as a bridge between Eastern and Western culture.

Keywords: Translation, adequate translation, poetic translation, poetic figure, figurative language, trope, spiritual and verbal art.

Tarjima dunyo xalqlarining madaniy, ilmiy va iqtisodiy hamkorligida g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan qadim davrlardan boshlab hozirgacha insoniyat tarjimaga ehtiyoj sezadi. Tarjima dastlab og'zaki va yozma tarjimaga ajratiladi. Yozma tarjima ham o'z navbatida badiiy asarlar, ilmiy adabiyotlar, rasmiy-idora hujjatlari, publisitsik materiallar va kinofilmlar tarjimasida kabi turlarga bo'linadi. Badiiy asarlar tarjimasida ham nasriy, she'riy va dramatik asar tarjimalari tavsiflanadi. Har bir tarjima turining o'ziga xos talablari bo'lib, bulardan she'riy tarjimaning har jihatdan murakkabligini alohida ta'kidlash joiz.

“She'riy tarjimaning asosiy vazifasi—she'rning mazmunini, vazni va ohangini saqlab qolish hisoblanadi”¹. Mumtoz she'riyat, ayniqsa Alisher Navoiy asarlarining tarjimasida esa shakl va mazmun mutanosibligini saqlash muammosi yanada murakkablashadi. Alisher Navoiyning o'zi ham tarjima bilan shug'illanib, Abdurahmon Jomiy va Fariduddin Attor asarlarini mahorat bilan turkiy tilga o'g'irgan. Biroq aksariyat navoiyshunoslar shoir tarjimalarida originallik xususiyatlari ustunligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy asarlari bir necha asrlardan buyon dunyoning yuzdan ortiq tillariga tarjima qilinganligi shoir ijodini tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq qilish imkonini berdi. O'zbek tarjimashunosligida mazkur doirada olib borilgan tadqiqotlarda tarjima jarayonida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, erishilgan yutuqlar, istiqboldagi tarjimalarning adekvatlik darajasini oshirish xususidagi fikr-mulohazalar bayon qilinib, tadqiqotlarning katta qismi semantik aspektdagi izlanishlardir. Alisher Navoiy asarlari tarjimasining stilistik xususiyatlariga doir yirik monografik tadqiqot sifatida esa S.Olimovning Alisher Navoiy asarlarining rus, tojik va ozarbayjoncha tarjimalarida poetik figuralarning qayta yaratilishiga doir ishini keltirish mumkin. Tadqiqotda badiiy san'at, stilistik vosita, poetik figura, tasviriy vosita, trop, ma'naviy va lafziy san'at tushunchalari atroflicha o'rganilib, turli til oilalariga mansub tillarda poetik figuralarning qayta yaratilishi

¹ Гафуров И., Мўминов О., Қамбаров Н. Таржима назарияси. – Ташкент:Тафаккур бўстони, 1985. –Б.196.

muammolari tadqiq qilingan². Alisher Navoiy asarlari tarjimalari tadqiqiga bag'ishlangan boshqa ilmiy izlanishlarda esa shoir ijodida qo'llangan badiiy san'atlar va ularning tarjimada qayta yaratilishi dissertatsiyalarning ayrim bo'limlarida qisman ko'rib o'tilgan.

Alisher Navoiy asarlari dunyoning deyarli barcha rivojlangan adabiy tillariga o'girildi³. Mazkur tarjimalar ozarbayjon, gruzin, turk, fors va Yevropa adabiyotiga adabiy ta'sir ko'rsatib, yangi asarlar va ilmiy tadqiqotlarga manba bo'lib xizmat qildi. Misr Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Alisher Navoiyning 1471-yil Sherozda Oqquyunli davlatining o'g'uz turkcha tilida ko'chirilgan devoni shoir asarlarining ilk tarjima namunasidir⁴.

XV asrda "Majolis un-nafois" tazkirasi ham fors-tojik tiliga o'girilib, bunga o'sha davrda Movarounnahr va Xurosonda forsiy tilning nufuzi balandligi, Alisher Navoiyga zamondosh turkiy shoirlar ham forsiy va turkiyda ijod qiladigan zullisonayn shoirlar ekanligi sabab bo'lgan. Keyingi asrlarda ham tarjima jarayoni uzluksiz davom etib, tarixchi va tilshunos Mirza Ali Baxt Azfariy Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini fors tiliga mahorat bilan o'girdi. Biroq mazkur tarjimalar tarjimashunoslikda ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.

XVII asrda yashagan gurji shoiri Sitsivili Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonini ijodiy tarjima qilib, "Yetti go'zal" yoki "Bahrom guriani", ya'ni "Bahrom go'r" dostonini yaratadi. Mazkur tarjima asar to'g'risida A.Abduazizovning "Alisher Navoiy merosining chet ellarda o'rganilishi" asarida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Biroq tarjimaning batafsil tahlili yoki uning ilmiy tadqiqi haqida biror ma'lumot uchramaydi, faqat "Sab'ai sayyor" dostoni haqida o'sha asrda ijod etgan gurji shoiri N.Persodaniadze Navoiyning mazkur dostonni chig'atoy tilida bitgani va shoirlik bobida tengi yo'q ekanligi haqidagi fikrlarini keltirib o'tilgan⁵.

Turkiyada Alisher Navoiy ijodiga qiziqish XV asrdan boshlanganligi sababli shoirning "Mahbub ul-qulub" asari turk tiliga, "Muhokamat ul-lug'atayn" asari esa XIX asr boshlarida turk va tatar tillariga tarjima qilingan⁶. Shoir asarlarining tarjimalari ta'sirida O.Sirri Levend shoir haqida "Alisher Navoiy" nomli to'rt jildli asar⁷, Dukakinzoda Yahyo Bey esa Navoiyga atab "Gulshani Anvor" nomli masnaviy yozadi⁸. Ozarbayjonlik R.Asqarning sa'y-harakatlari natijasida shoirning "Xamsa" asari ozarbayjon tiliga ham tarjima qilindi⁹. Shoir ijodining turk va ozarbayjon adabiyotiga ta'siri masalalari olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilganiga qaramay, yuqorida sanalgan tarjimalar tarjimashunoslik nuqtai nazaridan to'la tadqiqini topmagan.

XX asr o'rtalaridan Navoiy asarlari eronlik tarjimonlar tomonidan fors tiliga o'girildi. Muhammad Naxchevaoniy "Xamsa"ni, Ali Asqar Hikmat "Majolis un-nafois"ni 1944-yilda, Torxon "Muhokamat ul-lug'atayn"ni 1948-yilda fors tiliga tarjima qilib, Tehronda nashr ettirdi. 1963-yilda Navoiyning "Devoni Foni"si ham Tehronda chop etilgan¹⁰.

² Олимов С. Проблемы воссоздания и трансформации поэтических фигур в переводе произведений Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985.

³ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 12.

⁴ <https://yuz.uz/uz/news/aqshda-alisher-navoiyning-580-yillik-tavallud-ayyomi-keng-nishonlanadi>

⁵ Абдуазизов А.А. Алишер Навоий меросининг чет элларда ўрганилиши. –Тошкент, 1991.

⁶ Ali Şir N. Nesayimü'l-Lugatayn. Hazirlayan: F.Sema Barutçu Özönder.–Ankara, 1996. –s.295.

⁷ Исматуллаев Х. Навоий иждодини хорижий мамлакатларда ўрганишга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1968. №5. – Б. 16.

⁸ Isen M. Anadolu Türk Edebî Dili Üzerine Nevâî Etkisi // Uluğ Bey Sempozyumu. –Çorum, 30 Mayıs–1 Haziran 1994. – S. 298.

⁹ https://uza.uz/oz/posts/navoiyning-xamsa-asari-ozar-tilida-nashr-etildi_333698

¹⁰ Абдуазизов А. Алишер Навоий меросининг чет элларда ўрганилиши. –Тошкент, 1991.

Alisher Navoiy ijodining nemis tiliga tarjima qilinishida H.Vamberi, Y.Bertels, V.Bartoldlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqida A.Abdullajonovning ilmiy tadqiqotida batafsil ma'lumotlar berilib, shoir ijodining olmon adabiyotiga kirib borishi, tarjima bosqichlari tadqiq qilingan. Olimning ta'kidlashicha, Alisher Navoiy she'riyati tarjimalari 1583-yilda X.Armaniyning italyancha tarjimasini Y.Vetsel nemis tiliga o'giran tarjimadan boshlanadi va 400 yildan ortiq tarixga ega. Venger sharqshunosi H.Vamberi "Chig'atoy tili darsligi" asarida shoirning "Mahbub ul-qulub" asaridan parcha, g'azal va ruboiylaridan ham namunalar keltiradi. A.Abdullajonovning tadqiqot ishida H.Vamberi Alisher Navoiy asarlarini tarjima qilishda Munis va Ogahiyning tavsiyalariga asoslangani alohida ta'kidlab o'tilgan. Mazkur dissertatsiyada shoir ijodini olmon tiliga o'girish to'rt asrdan ortiq davrni tashkil etishi hisobga olingan holda, tarjimalar shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lib o'rganilgan:

1. Birinchi bosqich — XVI asrdagi va undan keyingi tarjimalar.

2. Ikkinchi bosqich — Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan amalga oshirilgan tarjimalar.

3. Uchinchi bosqich — Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan amalga oshirilgan tarjimalar.

4. To'rtinchi bosqich — Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan amalga oshirilgan tarjimalar"¹¹.

Olim har bir bosqichga mansub tarjimalarni nomma-nom sanab o'tadi. Ikkinchi bosqichda qilingan tarjimalarda A.Kurillaning nomi alohida ta'kidlab o'tilgan, chunki tarjimon Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonining bir qismini nemis tiliga mahorat bilan o'giradi. Mutarjim tarjima jarayonida garchi mazmunini to'la tushunmasa-da, o'zbek mumtoz she'riyati ohangini anglash uchun G'afur G'ulomdan shoir asarlarini o'qib berishni so'raydi. Shu tariqa A.Kurilla ham H.Vamberi kabi Alisher Navoiyni tarjima qilishda o'zbek olimlarining tavsiya va ko'magiga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуазизов А.А. Алишер Навоий меросининг чет элларда ўрганилиши. –Тошкент, 1991.
2. Ali Şir N. Nesayimü'l-Lugatayn. Hazirlayan: F.Sema Barutçu Özönder.–Ankara, 1996. – s.295.
3. Исматуллаев Х. Навоий ижодини хорижий мамлакатларда ўрганишга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1968. №5. – Б. 16.
4. Isen M. Anadolu Türk Edebî Dili Üzerine Nevâî Etkisi // Uluğ Bey Sempozyumu. — Çorum, 30 Mayıs–1 Haziran 1994. – S. 298.
5. https://uza.uz/oz/posts/navoiyning-xamsa-asari-ozar-tilida-nashr-etildi_333698

¹¹ Абдуллажонов А. Навоий бадийатини немисча таржималарда қайта яратиш ва табдил қилиш: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 20.